

MADANIY TADBIR SHAKLLARI VA UNDA INNOVATSION VOSITALARDAN FOYDALANISH ZARURATI



Gulshira Saparbaeva

Madaniyat faoliyati kafedrasi mudiri, dotsent
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filiali

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-06-02>

Annotatsiya: Ushbu maqolada madaniy tadbirlarning zamonaviy shakllari, ularni tashkil etishdagi zamonaviy metodik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarning o‘rnini tahlil qilinadi. Hozirgi kunda madaniyat va san’at muassasalari faoliyatini optimallashtirish, auditoriyaga ta’sirchanlikni oshirish va madaniy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini kuchaytirishda raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va media vositalarining qo’llanilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, madaniy tadbirlarning saviyasini oshirish, xalqni tadbir ishtiroychisiga aylantirish ham dolzarb muammolardan biri sanaladi.

Kalit so‘zlar: madaniy tadbirlar, innovatsion vositalar, raqamli texnologiyalar, madaniyat muassasalari, teatrlashtirilgan tomoshalar, musiqiy tadbirlar, zamonaviy yondashuvlar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные формы культурных мероприятий, методические подходы к их организации, а также роль инновационных технологий в этом процессе. На сегодняшний день применение цифровых технологий, интерактивных платформ и медиа-инструментов приобретает особую значимость в оптимизации деятельности учреждений культуры и искусства, повышении эффективности культурно-просветительской работы и усилении воздействия на аудиторию. Наряду с этим, одной из актуальных задач является повышение уровня культурных мероприятий и превращение населения в активных участников этих событий.

Ключевые слова: культурные мероприятия, инновационные средства, цифровые технологии, учреждения культуры, театрализованные представления, музыкальные мероприятия, современные подходы.

Abstract: This article analyzes modern forms of cultural events, methodological approaches to their organization, and the role of innovative technologies in this process. Today, the use of digital technologies, interactive platforms, and media tools is becoming increasingly important in optimizing the activities of cultural and art institutions, enhancing the effectiveness of cultural and educational work, and increasing the impact on the audience. At the same time, raising the quality of cultural events and engaging the public as active participants remains one of the pressing challenges.

Keywords: cultural events, innovative tools, digital technologies, cultural institutions, theatrical performances, musical events, modern approaches.

Madaniy tadbirlar nafaqat xalqning kayfiyatini ko‘tarish vazifasini bajaradi, shu bilan birga ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrash va yosh avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan, ularning shakllarini takomillashtirish va zamonaviy innovatsion vositalardan samarali foydalananish zarurati tobora ortib bormoqda. Teatr – bu hayotning sahnadagi aksidir, inson qalbining sirli qatlamlariga yetib boruvchi, ruhiy-estetik kamolotga chorlovchi san’at shaklidir. Teatrlashtirilgan madaniy tadbirlar esa aynan shu sahnaviy uslub orqali tarixiy haqiqatni, milliy qadriyatlarni, zamonaviy ijtimoiy muammolarni yoki bayramona kayfiyatni badiiy vositalar bilan ifodalovchi murakkab madaniy-kommunikativ

jarayondir. Bu tadbirlar orqali xalqning o‘z tarixi, qahramonlari, orzu-umidlari, g‘am-tashvishlari va g‘ururi sahna san’ati bilan uyg‘unlashgan holda gavdalanadi. Bugungi kunda teatrlashtirilgan madaniy tadbirlar faqatgina badiiy tasvirlar, akyorlik mahorati va sahna bezaklari bilan cheklanmaydi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida, ushbu tadbirlarning mazmuni va shakli chuqur transformatsiyaga uchramoqda. Tomoshabning estetik dunyoqarashi, informatsion ehtiyoji va vizual qabul qilish qobiliyatiga mos ravishda, teatrlashtirilgan tadbirlar yangi innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi zarur. Teatrlashtirilgan madaniy tadbirlar quyidagi shakllarda o‘tkazilishi mumkin:

- Tarixiy sahnaviy kompozitsiyalar (masalan, mustaqillik tarixi, buyuk allomalar hayoti asosidagi sahnalar)
- Folklor va milliy urf-odatlarni sahnalashtirish
- Bayram tadbirlari uchun sahnalashtirilgan chiqishlar (Navro‘z, Mustaqillik kuni, Konstitutsiya kuni va boshqalar)
- Yodgorlik marosimlari, teatr-fantaziya yoki teatr-installyatsiya ko‘rinishida

Ushbu shakllarda asosiy vazifa – badiiy ifoda orqali voqeani yoki g‘oyani auditoriyaga emotsiyal va estetik ta’sir kuchi bilan yetkazishdir. Ammo XXI asr tomoshabini uchun bu yetarli emas. U endi nofaol kuzatuvchi emas – balki interaktiv, vizual va tajribaviy muhitda yashayotgan insondir. Teatrlashtirilgan madaniy tadbirlarda quyidagi innovatsion vositalardan foydalanish katta imkoniyatlar yaratadi:

- Multimedia texnologiyalari: LED-ekranlar, 3D proyeksiya, videografik animatsiyalar sahnadagi hodisalarini yanada real, chuqur va dinamik ifodalash imkonini beradi. Misol uchun, tarixiy jang sahnalarini tasvirlashda animatsion fonlardan foydalanish sahna imkoniyatlarini kengaytiradi, akyorlik harakatlariga kontekst beradi.
- Virtual va kengaytirilgan reallik (VR/AR): VR vositalari orqali tomoshabinlar sahna atrofida joylashtirilgan virtual ob’ektlarni ko‘rishi yoki AR ilovalari orqali telefonlari orqali spektakl bilan interaktiv aloqaga kirishishlari mumkin. Bu tajriba ayniqsa yosh auditoriya orasida katta qiziqish uyg‘otadi.
- Hologrammalar va sun’iy intellekt: Tarixiy shaxslarning hologamma ko‘rinishida sahnaga chiqishi, ularning sun’iy intellekt orqali ovoz va mimikasining rekonstruksiya qilinishi teatrlashtirilgan tadbiriga ilmiy-fantastik ruhi bilan birga, kuchli ta’sirchanlik ham bag‘ishlaydi.
- Interaktiv ishtirokchilik: Mobil ilovalar yoki sensor texnologiyalari orqali tomoshabinlar tadbirga bevosita ta’sir ko‘rsata olishadi: masalan, ular ovoz berib syujet rivojini belgilashlari, sahnadagi yorug‘lik yoki musiqa effektlarini boshqarishlari mumkin.
- Raqamli ovoz va yorug‘lik dizayni: Sahnadagi musiqa va yorug‘lik maxsus algoritmlar orqali avtomatlashtiriladi, real vaqt rejimida sahna harakatlariga moslashtiriladi. Bu esa teatrning klassik estetikasiga zamonaviy uslub va texnik mukammallik olib kiradi.

Innovatsion vositalar, teatr san’atini robotlashtirish emas, balki uni yanada insoniy, chuqur va ko‘lamdor qilish vositasidir. Ayniqsa, teatr san’atining asosiy mohiyati – g‘oyani yurakka yetkazish bo‘lsa, texnologiyalar bu yo‘lda ko‘prik bo‘lib xizmat qiladi. Bu teatrnning asosiy ruhiga zid emas, aksincha, uni yangi shakllarda ifoda etish imkonidir. Shuningdek, teatrlashtirilgan madaniy tadbirlarning raqamli formatlarda saqlanishi, ularning arxivlashtirilishi, xorijiy auditoriyalarga tarjima vositasida taqdim etilishi orqali milliy madaniyatimiz global madaniy muhitda ham o‘z o‘rnini topadi. Teatrlashtirilgan madaniy tadbir – bu o‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi badiiy muloqot maydonidir. Undagi har bir sahna, har bir harakat, har bir ohang tomoshabning qalbini uyg‘otuvchi kuchga ega. Zamonaviy davr esa bizdan bu muloqotni yangi texnologiyalar orqali boyitishni, teatr estetikasini interaktiv, tajribaviy va vizual dunyoqarashga moslashtirishni talab qilmoqda.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish o‘ziga xos pedagogik xarakterga ega bo‘lib, bu jarayon maqsadlarni belgilash va faoliyat mazmunida aks etadi. Maqsadlarni noto‘g‘ri belgilash esa, oxir-oqibat tadbirning butun keyingi texnologik zanjirga ta’sir qiladi. Madaniy tadbirda qo‘yilgan maqsadlarga erishish ma’lum tarbiyaviy natijani beradi. Bu natijaga erishishda vositalar, shakllar, metodlar, usullarni tanlash, shuningdek, muassasa faoliyati katta rol o‘ynaydi. Hozirgi vaqtida

yoshlar uchun o'tkazilayotgan madaniy tadbirlarda aniq individual va jamoaviy natijalariga erishishga qaratilgan maqsadlar asos bo'lib xizmat qilmoqda[1]. Innovatsion vositalar yordamida tashkil etilgan teatrlashtirilgan tadbirlar nafaqat ko'ngil ochar, balki tarbiyaviy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy jihatdan boy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali biz milliy qadriyatlarimizni zamonaviy vositalar bilan bezab, yosh avlod qalbiga estetik zavq bilan singdira olamiz. Zero, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashgan madaniyat – bu shunchaki yangilik emas, balki istiqbol sari ochilgan sahna eshidir. Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, madaniy tadbirlarning shakllari xilma-xildir. Ularni tashkil etishda har biriga alohida nuqtai nazar bilan yondoshish muhimdir. Tantanali kunlar madaniy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xos shakli bo'lib, tadbir qatnashchilarida ma'lum bir yo'nalish va mavzu bo'yicha kayfiyat kun davomida hukmronlik qiladi hamda bu kun ularning hayotlari davomida uzoq saqlanib qoladi. Kunlar o'tkazish rejasiga kirgan barcha tadbirlar mavzuga asosan tuzib chiqiladi. Tantanali kunning o'zi alohida ish shakli bo'lsada, bayramlarga o'xshab, boshqa ko'plab shakl va usullar yig'indisidan tashkil topadi. Masalan: "Bilimlar kuni"ni o'tkazishda ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvlar, ilmni o'rganish va uning inson hayotida zarurligi haqida suhbatlar, kitoblar ko'rgazmalarini tashkil etish va konserst dasturlarini namoyish qilish kabi. Kechalar ilm-fan, texnika, madaniyat, san'at yutuqlari, ma'lum bir soha ish tajribalarini ommalashtirish, yosh avlodni vatanparvarlik, do'stlik, estetik va ma'naviy ruhda tarbiyalashda keng qo'llaniladigan shakllardan hisoblanadi. Kechalarning o'tkazish rejasidagi shakl va usullarni qamrab oladi:

Tantanali qism: tashrif buyurgan mutaxassislarining so'zga chiqishlari, mavzu yuzasidan ma'ruza va suhbatlar.

Badiiy qism: konserst dasturlari, spektakl va turli tomoshalar.

Ommaviy qism: turli xil ommaviy, harakatli va sport o'yinlari, viktorinalar, asfaltga rasm chizish, musobaqa, ko'rik-tanlov va boshqalar.

O'zbekistonda madaniy tadbirlar muntazam ravishda davlat darajasija tashkil etilib, insonlarga ma'naviy ozuqa berish, ularni ma'rifat bilan qurollantirish, bo'sh vaqtlni to'g'ri tashkil etish kabi muhim vazifalarni bajarib kelinayotganligidan dalolat bermoqda. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tashkilotchi rahbar xilma-xil usullardan foydalanish bilan bir qatorda, turli xil vositalardan ham foydalanadi. Madaniy tadbirlarni g'oyaviy emotsiyonal vositlarsiz also tasavvur qilib bo'lmaydi. Maxsus materialgarsiz uy qurib bo'lmaganidek, vositlarsiz tadbirni tashkil qilib bo'lmaydi. Agar, imorat cement, yog'och, mix, oyna va shunga o'xhash materiallar asosida vujudga kelsa, madaniy tadbirlarni ham o'ziga xos so'z, san'at va texnik vositlarsiz tashkil qilib bo'lmaydi. Vositalar tadbirning tarkibiy qismi, asosiy komponentlari va mexanizmlari sifatida xizmat qiladi. Vosita tushunchasi deganda, kishilarning hissiyotiga, psixologiyasiga va ongiga ta'sir etuvchi va bilim olish samaradorligini oshiruvchi goyaviy-hissiy qurollar, asbob-uskunalarini tushunamiz. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda biz bevosita turli vositalarning ishtirokiga amin bo'lamiz. Ayniqsa bayram tomoshalarida qo'llaniladigan vositalarning diapozoni juda keng va ularning soni ko'pdir.

Tadbirlarda jonli so'z, matbuot, ko'rgazmali qurollar, adabiyot va san'at, har xil texnik apparatlar kabi vositalardan keng foydalanamiz. Bular esa har qanday tadbirning sermazmun va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Tadbirning g'oyaviy va emotsiyonal-obrazli kuchini oshiradigan, ommanning qiziqishini orttiradigan vositalardan samarali foydalanish – bu tashkilotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Madaniy tadbirlar tashkilotchisi mavjud bo'lgan barcha ta'sirchan vositalardan yaxshi xabardor bo'libgina qolmasdan, balki ulardan samarali foydalanish metodikasini ham bilmog'i lozimdir.

Darhaqiqat, bu soha o'ziga xos san'at turi bo'lib, madaniy tadbirlarni ta'sirchanligini oshiradi. Madaniy tadbirlarda boshqaruvchi so'zi asosiy o'rinni egallaydi, ba'zi hollarda esa u kechaning boshidan to oxirigacha yetakchi vosita sifatida qo'llaniladi. U kirish so'zi (monolog) shaklida yoki muqaddima sifatida yaxshi xizmat qilishi mumkin. Tadbir davomida esa boshqaruvchi, komentatorga, hikoyachiga yoki intervyyu beruvchiga aylanib, jonli so'zdan foydalaniladi. Tadbirlarda jonli so'zdan foydalanish imkoniyatlari juda ko'p. Ammo, bir narsani hisobga olish muhimdir. Sahnalashtirish san'atida ko'pincha so'z o'rmini harakat bilan

almashtirish variantlari izlanadi, ya’ni so‘zning ekvivalenti harakat bilan almashtiriladigan holatlarni ham kuzatish mumkin. Ta’sirchan vositalardan biri badiiy so‘zdir. Badiiy so‘z aytimoqchi bo‘lgan fikrni badiiy-emotsional tarzda yetkazib berishga xizmat qiladi.

Badiiy o‘qish boshqa materiallar bilan bir vaqtida ijro etishi mumkin. Masalan, she’r o‘qilayotgan bir vaqtida she’rning ma’nosiga mos keladigan kino lavhalar ko‘rsatilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, umumiyo to‘qima gaplar bilan aholini hech qachon qiziqtirib bo‘lmaydi. Madaniy tadbirdorda dramatik parchalardan ham mohirona foydalanish yaxshi samara beradigan vositalardan hisoblanadi. Dramatik parchalarni tayyor pyesalardan olish ham mumkin yoki mavzuga oid turli badiiy asarlarni inssenirovka qilish orqali ham ishlatish mumkin. Unda ko‘pincha havaskorlik teatr kollektivlarining ijod mahsullari asqotadi. Mahalliy (faktlarga asoslangan) muammolarga qaratilgan turli intermediya, hajviy ko‘rinishlarni ijrochilar o‘zlarini to‘qib, yozib, sahnalashtirib tomoshabinlar e’tiboriga havola etishlari mumkin.

Bunday usuldan foydalanish tomoshabinlarni tarbiyasiga ijobiy ta’sir qilishi mumkin. Madaniy tadbirdarni tashkil etishda eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalardan yana biri – ko‘rgazmali vositalardan foydalanishdir. Ko‘rgazmali vositalardan foydalanish tadbir mazmunining yaxshiroq yoritilishiga yordam beradi, tomoshabinning kayfiyatini ko‘taradi va taassurotlarini boyitadi. Tomoshabinni bo‘lajak tadbir bilan ilk bor tanishtiruvchi vositalar – bu afishalar va taklifnomalardir. E’lonlarda faqat tadbir bo‘lishi haqidagi xabarning o‘ziningina yozib qoyish kifoya qilmaydi, balki uning tuzilishiga qarab badiiy bezash mumkin. Bu tomoshabinning tadbirda qiziqishini oshiradi. Tadbir boshlanishdan avval tematik ko‘rgazma ham tashkil etish mumkin. Teatrlashtirilgan kechalardan oldin har xil ko‘rgazmalarni tashkil qilish ko‘p joylarda an’ana bo‘lib qolgan. Shunday qilish kerakki, bu ko‘rgazma bo‘lajak tadbirdning mazmun ko‘prigi vazifasini o‘tasin.

Bunday ko‘rgazmali vositalar tomoshabinda tadbirdning mazmuni va xarakteriga mos psixologik kayfiyat uyg‘otadi. Tadbirlarda karta, sxema, diagramma, plakatlar, shiorlar va sahna harakatida foydalaniladigan boshqa predmetlar ham tadbir mazmunini ochib berishga yaxshi yordam beradi. Ko‘rgazmali vositani qulay va yengil qilib, almashtirishga oson qilib tayyorlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, madaniy tadbirdarni tashkil etishda ta’sirchan vositalardan unumli foydalanish tadbirdning salohiyatini ko‘taradi, saviyasini oshiradi va badiiyligini ta’minlaydi. Ammo bu vositalardan foydalanish tadbir tashkilotchilardan boy va ijodiy fantaziyani talab qiladi.

Madaniyat insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni – inson bilan inson, inson bilan siyosat, iqtisodiyot, texnika, jonli va jonsiz tabiat hamda yer yuzidagi barcha jarayonlar bilan munosabatlarni tartibga soluvchi va uyg‘unlashtiruvchi kuchga ega hodisalikdir. Har bir madaniyat vakili inson kelajagi uchun faol kurashchidir. Yangi g‘oyalalar xalqni yaratish jarayonida faollik ko‘rsatishga undashi, jamiyat mehnatida odamlarning ishtiyocini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Madaniy tadbirdorda ham jamiyat tarbiyasi va ta’limiga ta’sir ko‘rsatishning zamonaviy usullaridan foydalanish talab etiladi. Jamiyatni bir rivojlanish bosqichidan boshqasiga – ya’ni “modernizatsiya” deb nomlangan o‘zgarishga – undaydigan yangi san’at asarlari kerak[2].

Madaniy tadbirdorda eng ko‘p qo‘llaniladigan vositalardan biri bu – musiqa san’ati misolida ko‘rib chiqamiz. Musiqaning nazariy asosi ettita notadan iborat bo‘lsa ham, uning ustida tom-tom ilmiy va nazariy xulosalar chiqarish borasida haligacha izlaninishlar olib borilmoqda. Turmushning hamma qirralarida, moddiy va nomoddiy sohada ham musiqa san’ati kishilarni ezzulikka, yaxshilikka, ulug‘likka chorlovchi, mehnatga undovchi, insonlarda estetik zavq uyg‘otuvchi vosita sifatida qaraladi.

Musiqa insonlarning og‘ir damlarida dardkash, quvonchli kunlarida hamroh bo‘lib, ularning ma’naviyatini yaxshilik tomonga yunaltirishga xizmat qiladi va qilayotir. Faqat san’at jahbalarida emas, balki hayotning boshqa sohalarida ham musiqa muhim rollardan birini bajaradi. Lekin teatrda ham, radio, televidenieda ham musiqa yordamchi komponentlardan biri hisoblanadi, deyishadi. Bu bilan musiqa san’atlar ichida ikkinchi darajali ekan, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Musiqa san’ati – bu alohida san’at turi bo‘lib, san’atning boshqa turlariga singib ketgan.

Raqs, teatr va boshqa san'at turlarini musiqasiz tasavvur qilib ko'rish mumkinmi? Albatta mumkin emas.

“Musiqa” – yunoncha “musa” turli-tuman tovushlar bilan badiiy obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsiyal mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turidir. Qisqacha qilib aytganda, musiqa – tovushlar yig'indisi, degan ma'noni anglatadi. Agar xoreografiya, raqs san'ati qo'l, yuz, mimika xatti-harakatlari orqali badiiy obraz yaratuvchi san'at turi hisoblansa, musiqa – tovushlar orqali yaratilgan san'at turi hisoblanadi. Insonning jamiyatda tutgan mavqeい, madaniy tarbiyaviy, g'oyaviy-tashkilotchilik rolida musiqa yuksak o'rinda turadi. Har bir xalqning musiqasi milliy xususiyatlarga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Xalq musiqasi uzoq yillar mobaynida shakllanib, xalqning boy xazinasiga aylandi. Xalq musiqasi bilan mustahkam boglangani holda professional musiqa ham taraqqiy qilib keldiki, uning vujudga kelishiga mohir sozanda, bastakorlar o'z hissalarini qo'shdilar[3].

Musiqa san'ati sahna asarlari: teatr, drama, musiqali drama, opera, operetta, balet, kino va boshqa san'atlar ichida muhim rol o'ynaydi. Madaniy tadbirlarda esa uning roli benihoya ulkandir. Madaniy tadbirlarda musiqaning turli janrlari ishtirok etishi mumkin. Undan tashqari, bunday tadbirlarda musiqali jamoalar, vokal cholg'u ansambllari, musiqalardan parchalar, alohida musiqali nomerlar, boshqaruvchilarning chiqishlari uchun musiqa, xullas, voqeaneing rivojlanishi uchun, tadbir yoki tomoshaning tempo-ritmini ushlab turishi uchun musiqa san'atidan foydalaniladi. Musiqadan tadbirlar janrlaridan kelib chiqqan holda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tadbirni tashkil etish va sahnalashtirishda musiqa quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

- musiqa – qatnashuvchilar, ishtirokchi obrazlarini xarakterlab beradi;
- harakat vaqtin, joyini ifodalashi mumkin;
- tomoshabinga ko'rinnmayotgan voqealarni ilg'ab olishga, tez tushuna olishiga;
- harakat, voqeada sahnaviy muhit yaratadi;
- monolog va dialoglarning emotsiyonalligi (hissiyot, hayajonliligin) kuchaytiradi;
- so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan daqiqalarni tasvirlay bera olishi mumkin;
- xatti-harakat, voqealarni to'ldirishi, boyitishi mumkin;
- pauzalar o'rmini to'ldirishi mumkin;
- vaqtini tejash yoki cho'zish va boshqa muhim vazifalarni bajarishi mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish va sahnalashtirishda musiqa muhim vositalardan biri bo'lishi bilan birga undan foydalanish, uni yaratish, qo'llash bilan bog'liq bo'lgan ba'zi qiyinchiliklarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Ayniqsa, ochiq havoda, noan'anaviy sahnaviy maydonlarda o'tkaziladigan tadbirlar bevosita juda katta muammolar bilan bog'liq bo'ladiki, bunda tadbir tashkilotchilari barcha qiyinchilik, muammolarni bartaraf qilish yo'llarini izlashiga to'g'ri keladi. Joylarda texnik vositalarning hali etarli darajada to'liq talabga javob bera olmasliklari eng asosiy qiyinchiliklaridan biridir. Texnik muammolar hal qilingan taqdirda ularni yaxshi ishlashni biladigan mutaxassislar yo'qligi ham hal qilish lozim bo'lgan muammolardan biri hisoblanadi. Biron-bir madaniy tadbir uchun alohida musiqa yozish qiyin kechadigan jarayondir. Shuning uchun ko'pgina tashkilotchilar tayyor musiqa asarlarini tanlaydilar va shu musiqa asosida ish olib boradilar. Tadbir tashkilotchisi (yoki rejissyor) va bastakor tadbirni sahnalashtirishdagi asosiy ijodiy hamkorligi jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- bastakor ssenariy bilan to'liq tanishib chiqadi;
- rejissyor unga tadbirning mohiyati, mavzusi, g'oyasi, oliy maqsadi va sahnalashtirish uslubini tushuntiradi;
- bastakor mavzu va g'oya uyg'unligiga erishgan holda tomoshaning oliy maqsadidan kelib chiqib, musiqaning xomaki variantini ishlab chiqadi;
- rejissyor musiqani tasdiqlagandan so'ng u to'liq qayta ishlanadi va shu asosida repetitsiyalar boshlanadi;

Repititsiyalar mobaynida musiqali nomerlar ham bir necha marta o'zgarishi mumkin. Ba'zan tez fursatda yangi musiqa asari yaratishga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda rejissyor va

bastakorning qarashlari, nuqtai nazarlarining bir-birlariga mos kelishi yangi asarni tez va muvaffaqiyatli yaratilishiga asos bo‘la oladi. Agar rassom ijodi tasvirlash orqali, ko‘z bilan ko‘rish va estetik zavqlanish imkoniyatini bersa, musiqa san’atidan esa eshitish orqali zavqlanish mumkin. Sahnada ijro etilayotgan barcha xatti-harakatlar musiqa jo‘rligida amalga oshirilishi – bu yangilik emas. Boshlovchilarning chiqishlari, kuy-qo‘sishlar, tantanali qutlovlari, dialog va monologlardagi hazin musiqalar, raqlar va boshqa barcha ijodiy jarayonlar musiqa jo‘rligida, musiqaning hamohangligida ifodalanadi.

Hozirgi kunda respublika miqyosida o‘tkazilayotgan barcha bayram va tomoshalarni sahnalashtirish uchun kuy, qo‘sish va musiqa tanlash eng asosiy ish bosqichlaridan hisoblanadi. Musiqa va kuylarning turli variantlari tanlangach, ularning ijrochilari taklif etilib, qisqartirish yoki qo‘sishma matn qo‘sish (muallif roziligi bilan), xullas, montaj ishlari amalga oshiriladi. Musiqiy montaj ishlari amalga oshirilgach, shu asosda repetitsiyalar boshlanadi. Musiqa albatta plastika, raqs, chiroq va boshqa ta’sirchan vositalar uyg‘unligida ham badiiy obraz yaratish imkoniyatlariga ega. Musiqasiz tadbir tomoshabinga kerakli effektni bera olmaydi. Musiqaning to‘g‘ri tanlanishi, uni kerakli joyda ishlatilishi, uning g‘oyaviy va mavzu jihatdan tomosha ruhiyatiga mos kelishi bastakorning tadbir yoki tomoshani oliy maqsadini to‘g‘ri anglay olganligidan dalolat beradi.

Bo‘lajak madaniy tadbirlar tashkilotchilari musiqani biror cholg‘u asboblari bilan chalishni yoki qo‘sish kuylashni bilmasalar ham, uning elementar nazariyasini, ularni bir-biridan farqlay oladigan va boshqa sahnalashtirish uchun muhim tomonlarini bilib olishlari zarur. Madaniy tadbir tashkilotchisi musiqani chala olmasa ham, kuylashni bilmasa ham, tayyor musiqa asarlarini tanlay olishi va uni kerakli joyga qo‘llay olishni bilishi, bir so‘z bilan aytganda uni tushunishi zarurdir.

Musiqa tomoshabinni tomoshani yaxshi qabul qilishida muhim rol o‘ynaydi, lekin tomoshabinning asosiy e’tibori aktyorda yoki sahnada bo‘layotgan xatti-harakatlarda bo‘lganligi uchun musiqani meyordan (hajmi, ovoz balandligi kabi) oshirib yuborsak, biz tadbir yoki tomoshadagi voqealikni tomoshabinga etib kelish meyor darajasini buzishimiz mumkin. U meyor darajasida amalga oshirilsa, bir umr tomoshabinning yodida qolishi mumkin. “Musiqa teatrda so‘zdan boshlanadi, – deydi mashhur rejissyorlardan Y.A.Zavadskiy, – ritm, melodiya va nutqda davom etadi. Musiqa teatrlashtirilgan tomoshaning haqiqiy mavjudligini bildiradi. Men, agar spektakl musiqalashtirilmagan bo‘lsa, u ritmik bo‘lmasa, uni yomon spektakl deb hisoblayman. Musiqa – buyuk va aniq san’atdir. U bizni mahoratga, yuksaklikka undaydi, biz anglamay qolgan fikrlarni ilg‘ab olishga yordam beradi[4]”.

Madaniy tadbirlarda (ommaviy bayramlar, sayillar, teatrlashtirilgan konsert, badiiy publitsistik kompozitsiyalar va h.k.) qo‘llaniladigan musiqa faqat tomoshabin uchun emas, ijrochi uchun ham muhimdir. Fikrni bir joyga to‘play olish, rolga, obrazga kirishish, sahnada o‘zini erkin his qilish uchun, umuman sahma maydondagi vogelikni, ommani boshqarish uchun ham muhim vositalardan biri hisoblanadi. Musiqaning ifodali imkoniyatlari kengdir. Unda hayot va o‘lim, qahramonlarcha kurash, orzu, qayg‘u, shikoyat, tuhmat, hazil kabi mavzularni ifodalash mumkin. Musiqaning buyumni ko‘rsatib, tasvirlab beruvchi vositasi yo‘q, lekin u tomoshabin sezgisiga, ongiga ta’sir qilibgina qolmasdan, uni tasavvur qilishga unday oladi. Musiqaning tasviriy darajasi turli janrlarda turlicha namoyon etiladi. Ayniqsa, kino va teatr san’atida tasviriy imkoniyatlardan keng foydalilanadi. Masalan, faqat musiqa yordamida biz poezd “chiza olmaymiz”, lekin buni ovoz, tovush orqali (musiqa jo‘rligida g‘ildirak aylanishi va h.k.) berishimiz mumkin. Yuqoridaqgi barcha usullar madaniy tadbirlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlar madaniy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqib, xalq bilan samarali aloqani ta’minlaydi. Shu bilan birga, madaniyat sohasida yangicha shakllar va mazmunni yaratishga imkon beradi. Shuning uchun madaniy tadbirlarda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zamon talabidir. Innovatsion usullar qo‘llanilganda yoshlarni madaniy tadbirlarga qamrab olish imkoniyati sezilarli darajada oshadi. Zamonaviy texnologiyalar, interaktiv platformalar, raqamlı media va ijodiy yondashuvlar yosh avlodni qiziqtiradi, ularni faol ishtirot etishga undaydi. Bu nafaqat madaniy tadbirlarning ommaviyligini oshiradi, balki yoshlarning madaniy qadriyatlarni chuqurroq anglashiga va madaniyatga bo‘lgan qiziqishini mustahkamlashga xizmat qiladi. Innovatsiyalar orqali madaniyat sohasida yangi formatlar va shakllar yaratiladi, bu

esa yoshlар uchun yanada jozibador bo‘ladi. Shunday qilib, innovatsion vositalar yoshlarni madaniy jarayonlarga faol jalb etishda samarali vosita hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro`yxati:

1. Ивонина Я. И. Инновации в организации культурно-массовых мероприятий для студенческой молодёжи // Учёные записки (АГАКИ). 2020. №4 (26). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsii-v-organizatsii-kulturno-massovyh-meropriyatii-dlya-studencheskoy-molodyyozhi> (дата обращения: 21.07.2025).
2. Илькевич К. Б. и др. Инновации в культуре и искусстве //Редакционный совет: БВ Илькевич, ректор ГГХПИ, доктор педагогических наук, профессор. – 2015. – С. 666.
3. I.Akbarov. Muzika lug‘ati. – Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1987. 331 b.
4. Козюренко Ю. Музыкальное оформление спектакля. М.Искусство. 1986. 6 стр.
5. Abatbaevna, Saparbaeva Gulshira, and Qolqanatov Asilbek Nazarbaevich. "History of the Development of Spiritual and Educational Processes in Karakalpakstan." (2023).
6. Saparbayeva, Gulshira, and Asilbek Qolqanatov. "Ommaviy bayramlarni tashkil etishda ssenariynavislikning o ‘rni." Oriental Art and Culture 8 (2021): 16-21.